KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

BIRINCHI SINF O‘QUVCHILARIDA IJODIY TAFAKKURNI TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Valiyeva Nargiza Athamboyevna
Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi,
Qo‘qon, O‘zbekiston,

Mamasoliyeva Mashhuraxon Shuxratjon qizi
Qo‘qon universiteti talabasi,
Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada birinchi sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni tasviriy faoliyat vositasida rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ishtiyoqi, tasavvuri va obrazli tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati, shuningdek, birinchi sinf o‘quvchilarining maktabga moslashish jarayonida interfaol metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalarining o‘rni tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida maktab ta’limi sifatini oshirish hamda o‘quvchilarda erkin va mustaqil fikrlashni shakllantirish borasida belgilangan vazifalar, L. S. Vigotskiyning ijodkorlik va tasavvur haqidagi qarashlari ko‘rib chiqilgan. Darslarni qiziqarli tashkil etish va bolalarning iqtidorini aniqlashga xizmat qiluvchi “Tugallanmagan rasm”, “Agar men rassom bo‘lsam”, “Mo‘jizakor shakllar”, “Ranglar hikoyasi” va “Tabiatdan ilhomlanib” metodlari taklif etilib, ularning maqsadi, o‘tkazilish tartibi va kutilayotgan natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tasviriy faoliyat orqali o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tasavvur va estetik didni rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. Maqolada o‘quvchilarni darsga qiziqtirish, ularda muammolarga ijodiy yechim topish va mustaqil fikrlay olish qobiliyatlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: boshlang‘ich ta’lim, birinchi sinf, tasviriy faoliyat, ijodiy tafakkur, obrazli tafakkur, kreativ pedagogika, estetik tarbiya, innovatsion texnologiya.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING CREATIVE THINKING IN FIRST-GRADE PUPILS THROUGH VISUAL ARTS ACTIVITIES

Valiyeva Nargiza Athamboyevna
Senior Lecturer of Kokand University,
Kokand, Uzbekistan

Mamasoliyeva Mashhuraxon Shuxratjon kizi
Student of Kokand University,
Kokand, Uzbekistan

Annotation. This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing creative thinking in first-grade pupils through visual arts activities. It analyses the importance of fostering curiosity, imagination and imaginative thinking during primary education, as well as the role of interactive methods and innovative educational technologies in helping first-graders adapt to school. The article reviews the tasks set out in decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan on improving the quality of school education and developing free and independent thinking in pupils, together with L. S. Vygotsky’s views on creativity and imagination. Five methods that make lessons engaging and help identify children’s talents are proposed: “Unfinished Drawing”, “If I Were an Artist”, “Magic Shapes”, “The Story of Colours” and “Inspired by Nature”. The aims, procedure and expected outcomes of each method are described. The potential of visual arts activities for developing observation, imagination and aesthetic taste is also shown. Recommendations are given on increasing pupils’ interest in lessons and strengthening their ability to find creative solutions and think independently.

Keywords: primary education, first grade, visual arts activity, creative thinking, imaginative thinking, creative pedagogy, aesthetic education, innovative technology.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n17

Tobora rivojlanib borayotgan yurtimizda ta’lim tizimining asosiy vazifa va maqsadi har tomonlama rivojlangan, o‘z fikriga ega, hamma uchun birdek manfaatli bo‘lgan yangiliklar yaratishga intiladigan, yurt ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shadigan va, eng asosiysi, o‘z qobiliyatlarini to‘laqonli namoyon eta oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonni amalga oshirishda o‘qituvchilar millatni ilmli qilish uchun fidokorona xizmat qiladi. Bu bosqichda o‘quvchilarning tasviriy ifoda faoliyatini, obrazli tafakkur jarayonlarini va estetik dunyoqarashini yanada takomillashtirish pedagoglarning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda raqobatbardoshlik, tanqidiy fikrlash, muammolarga har qanday holatda ham ijobiy yechim topa olish va ijodiy faoliyatni kuchaytirish ko‘nikmalarini takomillashtirishdir. Ta’lim jarayonining asosiy bo‘g‘ini boshlang‘ich ta’lim hisoblanadi, chunki o‘quvchilarga dastlabki ta’limiy bilimlar aynan shu yoshdan boshlab beriladi. Bu davrda o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan ishtiyoq, tasavvur va fikrlash qobiliyatlari ortadi, tabiat va olam haqidagi tasavvur va tushunchalari tartiblanib boradi. Qolaversa, o‘quvchilarda ijtimoiylik, atrof-muhitga munosabat, estetik did kabi tizimlashtirilgan tushunchalar sezilarli darajada rivojlanadi.

Birinchi sinf o‘quvchilarining maktabga moslashish jarayonini tezlashtirish uchun o‘qituvchilarga turli interfaol metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, har bir o‘quvchiga individual yondashish tavsiya etiladi, chunki bu vositalar yordamida ta’lim jarayonida ancha samarali natijaga erishiladi. Bu faoliyat natijasida o‘quvchida tasviriy g‘oyalar va ijodiy yondashuv kuchli rivojlanadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. Har bir bolaning ongida ma’lum darajada tasviriy ifoda turlari shakllangan bo‘ladi, o‘qituvchidan esa bolaga to‘g‘ri yo‘nalish berish, uning ijodkorlik qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish talab qilinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ko‘p kuzatiladigan holat shuki, ularning o‘yin faoliyatidan bilim olish faoliyatiga o‘tishi birmuncha qiyin kechadi. Bunday holatlarda ko‘plab o‘qituvchilar yuqorida keltirilgan samarali usullardan foydalanib, o‘quvchilarni darsga qiziqtiradi.

O‘quvchilarda tasviriy faoliyatni rivojlantirish faqatgina rasm chizdirish, turli materiallar yordamida o‘yinchoq yoki geometrik shakllar yasash bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o‘quvchining kuzatuvchanlik, taqqoslash, tasavvur etish, ijodkorlik, mantiqiy yondashuv kabi turli xususiyatlarini ham qamrab oladi. Shu sababli o‘qituvchilar o‘quvchilar o‘z iqtidorlarini to‘liq namoyon etishlari va ijodiy tafakkurlari o‘sib borishi uchun tasviriy faoliyat turlaridan foydalanishlari zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘liq joriy etish, zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish va ta’lim sifatini oshirish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorda ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, interfaol metodlarni joriy etish zarurligi ta’kidlangan [4].

Mamlakatimizda ijodkorlik va kreativ pedagogikaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot

davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yangi bosqichga ko‘tarish vazifalari belgilangan [3]. Bu esa maktab ta’limida ijodiy yondashuvlarni, fanlararo bog‘liqlik va tasviriy fikrlashni uyg‘unlashtirishga keng yo‘l ochadi.

Ilmiy-pedagogik manbalarda ham tasavvur va ijodning uzviy bog‘liqligi keng yoritilgan. L. S. Vigotskiy tasavvurni har qanday ijodiy faoliyatning asosi deb hisoblaydi va bolaning ijodi avvalgi tajriba hamda taassurotlar unsurlarini qayta birlashtirish orqali yangi obrazlar yaratishdan iborat ekanini ko‘rsatadi. Olimning fikricha, bola tajribasi qanchalik boy bo‘lsa, uning tasavvuri uchun material ham shunchalik ko‘p bo‘ladi [5].

Birinchi sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkur asosan obrazli fikrlash, tasavvur va amaliy harakatlar orqali rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar o‘z fikrlarini har doim ham og‘zaki tarzda to‘liq ifodalay olmasliklari mumkin. Bunday holatlarda ular ranglar, chiziqlar va turli tasvirlar yordamida o‘z dunyoqarashi hamda hissiyotlarini namoyon eta oladilar. Yuqorida keltirilgan Vigotskiy g‘oyalari tasviriy faoliyatning bola rivojiga ta’sirini tushunishda muhim nazariy asos hisoblanadi: rang, chiziq va shakl bilan ishlash bolaning tajribasini boyitadi, boyigan tajriba esa yangi ijodiy obrazlar uchun zamin yaratadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘quvchilarning intellektual salohiyati va tasviriy tafakkurini oshirishda turli qiziqarli metodlar ham yaxshi samara beradi. Darsni qiziqarli o‘tkazish va bolalarning iqtidorini aniqlashda quyidagi metodlar yordam beradi:

1. “Tugallanmagan rasm” metodi;
2. “Agar men rassom bo‘lsam” metodi;
3. “Mo‘jizakor shakllar” metodi;
4. “Ranglar hikoyasi” metodi;
5. “Tabiatdan ilhomlanib” metodi.

“Tugallanmagan rasm” metodi.

Maqsad: o‘quvchilarda ijodkorlik g‘oyalarini o‘stirish, erkin fikrlashga undash, tasavvur olamini yanada boyitish. O‘quvchilarning tasviriy faoliyat jarayonlarini barqarorlashtirishda bu metodni qo‘llash ayniqsa samarali.

O‘tkazilish tartibi:

1) Metod sharti bolajonlarga tushuntiriladi: “O‘zingizdagi belgini rasmga aylantiring”.

2) O‘quvchilarga ma’lum bir shakl to‘liq tushirilmagan kartochkalar taqdim etiladi.

3) O‘quvchilar rangli qalamlardan foydalanib, bu belgilarni o‘z ijodkorligi va tasavvurini ishga solgan holda davom ettiradi va yangi rasm yaratadi. Masalan, yarim doira asosida gul yoki quyosh, burchak asosida uy rasmini chizish mumkin. Metod oxirida o‘quvchilar nega aynan shu rasmni yaratganini, topshiriqni bajarish davomidagi kechinmalarini do‘stlariga aytib beradi. Jarayon yakunlangach, barcha o‘quvchilar xoh moddiy, xoh ma’naviy rag‘batlantiriladi.

Kutilgan natijalar: o‘quvchilarda erkin muloqot shakllanadi, vizual vaziyatlar asosida kuzatuvchanlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

“Agar men rassom bo‘lsam” metodi. *Maqsad:* o‘quvchining o‘zini ijodkor sifatida his qilishi, orzu va tasavvurlarini tasvir orqali ifodalashiga imkon berish. O‘qituvchi o‘quvchilarga “Agar men rassom bo‘lsam, nimani chizgan bo‘lardim?” degan savol bilan murojaat qiladi. Har bir o‘quvchi chizmoqchi bo‘lgan narsasini tanlab, rasm chizadi va uni sinfdoshlariga qisqacha tushuntirib beradi. Metod o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, og‘zaki nutq va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Mo‘jizakor shakllar” metodi. *Maqsad:* geometrik shakllar asosida obrazli tafakkurni rivojlantirish. O‘quvchilarga doira, uchburchak, to‘rtburchak kabi rangli qog‘oz shakllar beriladi. Ular bu shakllarni turlicha joylashtirib, hayvon, mashina, uy yoki boshqa obrazlarni yaratadi va qog‘ozga yopishtiradi. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar shakllarni taqqoslash, ularni nomlash va bitta shakldan turli obrazlar hosil qilishni o‘rganadi. Bu esa tasviriy faoliyatni matematika bilan bog‘lashga ham xizmat qiladi.

“Ranglar hikoyasi” metodi. *Maqsad:* ranglar orqali his-tuyg‘ularni ifodalash va nutqni rivojlantirish. O‘qituvchi ranglarning kayfiyat bilan bog‘liqligi haqida qisqacha suhbat o‘tkazadi, so‘ng o‘quvchilar o‘zlariga yoqqan ranglar yordamida kichik rasm chizib, unga bog‘liq qisqa hikoya to‘qiydi. Metod tasviriy faoliyatni ona tili va o‘qish savodxonligi darslari bilan uyg‘unlashtiradi.

“Tabiatdan ilhomlanib” metodi. *Maqsad:* kuzatuvchanlik va tabiatga mehrni tarbiyalash. Mashg‘ulot maktab hovlisida yoki tabiat burchagida tashkil etiladi: o‘quvchilar barg, gul, daraxt, bulut kabi tabiat obyektlarini kuzatadi, ularning shakli va rangini taqqoslaydi, so‘ng ko‘rganlari asosida rasm chizadi yoki qurigan barglardan applikatsiya tayyorlaydi. Metod estetik tarbiya bilan bir qatorda ekologik tarbiyaga ham hissa qo‘shadi.

Bu metodlar yordamida dars olib borilsa, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ijodkorlik kompetensiyalari rivojlanadi, tafakkur qilish jarayoni barqarorlashadi. Shuni ham qo‘shimcha qilish kerakki, tasavvur va tasviriy bilim bir-biriga aloqador jarayonlardir: tasavvur qilish orqali ijod yuzaga keladi, ijod qilish jarayonida esa tasviriy faoliyat paydo bo‘ladi.

Ijod tushunchasi falsafiy adabiyotlarda ham keng talqin etiladi. Z. Davronov I. Saifnazarov va boshqa mualliflarning ta’rifiga tayanib, ijodni shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma’naviy olamni inson ehtiyoj va imkoniyatlariga muvofiq o‘zgartirishga qaratilgan bunyodkor faolligi, shakllangan stereotiplar, odatlar va an’analar doirasidan ongli ravishda chiqish sifatida izohlaydi [1; B.14.]. Bu ta’rif bolaning tayyor namunani takrorlash bilan cheklanmay, o‘z tasavvuri asosida yangi tasvir yaratishi ijodiy tafakkurning dastlabki ko‘rinishi ekanini anglatadi. Shu sababli bolaning ijodiy salohiyatini erta yoshdan qo‘llab-quvvatlash uning keyingi intellektual va ma’naviy kamolotiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchi sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish boshlang‘ich ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Tasviriy faoliyat esa ushbu vazifani amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada taklif etilgan metodik tavsiyalar tasviriy faoliyat va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Yana bir muhim jihat shundaki, pedagoglar tayyor namunalarni takrorlash bilan cheklanmasdan, mustaqil va ijodiy yondashuv asosida yangi usullar o‘ylab topsalar, bu yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qisqa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limni to‘g‘ri tashkil etish bolalarda ijod, tafakkur, intellektual salohiyat, estetik rivojlanish kabi bir qator ko‘nikmalarning shakllanishiga va, eng asosiysi, jamiyatga har tomonlama yetuk farzandlarni yetishtirib chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 216 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni.

11.05.2022 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-6008663 (murojaat sanasi: 06.11.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. 06.11.2020 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5085999 (murojaat sanasi: 06.11.2026).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori. 06.11.2020 // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5085887 (murojaat sanasi: 06.11.2026).
5. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте: психологический очерк. – 3-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 93 с.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.